

ADABIY-ESTETIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA UNI PEDAGOGIK TIZIMDA SHAKLLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Sobirova Dilafruz Abdulhay qizi,

Andijon davlat pedagogika instituti.

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası dotsenti, (PhD)

E-mail: sobirovad1992@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy-estetik kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning kognitiv, emotsional-estetik, aksiologik, faoliyatli va kommunikativ komponentlari ilmiy asosda yoritilgan. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida adabiy-estetik kompetensiyaning tutgan o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Lingvopoetik yondashuvning mazkur kompetensiyanı rivojlantirishdagi nazariy hamda metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogik tizimda adabiy-estetik kompetensiyanı shakllantirish yo‘nalishlari asoslab berilgan, uning o‘qituvchi va o‘quvchi estetik tafakkuri, badiiy didi hamda ma‘naviy kamolotini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari mazkur kompetensiyaning zamonaviy ta‘lim jarayonida ustuvor ahamiyatga ega ekanini ilmiy dalillar asosida ko‘rsatadi aniq ravishda bugungi.

Kalit so‘zlar: adabiy-estetik kompetensiya, lingvopoetik tahlil, estetik tafakkur, badiiy did, kasbiy mahorat, pedagogik tizim.

Аннотация. В данной статье на научной основе раскрываются сущность и содержание понятия литературно-эстетической компетенции, а также её когнитивный, эмоционально-эстетический, аксиологический, деятельностный и коммуникативный компоненты. Обоснованы место и значение литературно-эстетической компетенции в профессиональной деятельности учителя. Проанализированы теоретические и методические возможности лингвопоэтического подхода в развитии данной компетенции. Также определены направления формирования литературно-эстетической компетенции в педагогической системе и раскрыта её роль в развитии эстетического мышления, художественного вкуса и духовного становления учителя и обучающихся. Результаты исследования на основе научных доказательств подтверждают приоритетное значение данной компетенции в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: литературно-эстетическая компетенция, лингвопоэтический анализ, эстетическое мышление, художественный вкус, профессиональное мастерство, педагогическая система.

Abstract. This article scientifically examines the essence and content of the concept of literary-aesthetic competence, as well as its cognitive, emotional-aesthetic, axiological, activity-based, and communicative components. The role and significance of literary-aesthetic competence in teachers' professional activity are substantiated. The theoretical and methodological potential of the linguopoetic approach in developing this competence is analyzed. In addition, the main directions for forming literary-aesthetic competence within the pedagogical system are identified, and its role in developing aesthetic thinking, artistic taste, and spiritual growth of both teachers and students is revealed. The research findings confirm, on the basis of scientific evidence, the priority importance of this competence in the modern educational process.

Keywords: literary-aesthetic competence, linguopoetic analysis, aesthetic thinking, artistic taste, professional mastery, pedagogical system.

Kirish. Bugungi global ta‘lim jarayonida shaxsning estetik tafakkuri, badiiy didi va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish pedagogikaning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. O‘z navbatida, ushbu jarayon o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga, xususan, **adabiy-estetik kompetensiya** darajasiga bevosita bog‘liqdir.

Chunki o'qituvchi faqat bilim manbai sifatida emas, balki o'quvchilarda go'zallikni idrok etish, estetik qadriyatlarni tushunish va badiiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida yetakchi shaxs sifatida xizmat qiladi.

Adabiy-estetik kompetensiya zamonaviy pedagogik nazariyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U o'quvchilarda estetik didni, badiiy tafakkurni va shaxsiy ijodiy salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ sifatni ifodalaydi. Shu jihatdan, adabiy-estetik kompetensiyaning shakllanishi nafaqat o'qituvchining kasbiy malakasi, balki uning estetik va ma'naviy yuksakligini belgilovchi muhim faktor sifatida qabul qilinadi.

Bugungi global ta'lim jarayonida badiiy va estetik ta'limning roli ortib borayotgan sharoitda, o'qituvchining adabiy-estetik kompetensiyasi o'quvchilarning estetik tafakkuri va madaniy qadriyatlarini rivojlantirishning strategik vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, lingvopoetik yondashuvning nazariy va metodik imkoniyatlari o'qituvchiga badiiy matnni chuqur tahlil qilish, so'zning estetik va obrazli funksiyalarini ochib berish hamda o'quvchilarda badiiy ifodaning ichki mohiyatini idrok etish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini yaratadi.

Shu asosda, adabiy-estetik kompetensiyani pedagogik tizimda samarali rivojlantirish masalasi nafaqat ta'limning nazariy, balki amaliy ahamiyatini ham oshiradi. Mazkur kompetensiya o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi estetik muloqotni chuqurlashtiradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiradi hamda pedagogik jarayonda estetik idrokni tizimli shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, adabiy-estetik kompetensiyaning ilmiy asoslarini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tahlil qilish va pedagogik tizimda shakllantirish yo'nalishlarini aniqlash bugungi kunda pedagogika, psixologiya va filologiya fanlarining tutashgan tadqiqot maydoni hisoblanadi.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, Prezident maktablari, Ijod maktablari va Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, estetik tarbiya hamda badiiy tafakkurni rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa o'qituvchidan faqat predmet bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishni emas, balki badiiy matnni estetik tahlil etish, o'quvchini his qilish, go'zallikni anglash va qadrlashga o'rgatish ko'nikmalarini ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy-estetik kompetensiyani shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va filologiya fanlari tutashgan nuqtada o'rganilmoqda.

Adabiy-estetik kompetensiya mohiyatan o'qituvchining badiiy asar bilan estetik muloqotga kirishish, obrazli tafakkur yuritish, estetik qadriyatlarni shaxsiy e'tiqodga aylantirish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi, ta'lim jarayonida badiiy nutq, lingvopoetik tafakkur, estetik idrok va baholash madaniyatini uyg'unlashtiruvchi muhim sifat sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda kompetensiyaviy yondashuv markaziy o'rinni egallab, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, adabiy-estetik

kompetensiya o'qituvchining estetik madaniyati, adabiy tafakkuri, badiiy didi va nutq madaniyatining integratsiyasini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu kompetensiya o'quvchining estetik rivojlanishini ta'minlaydigan shaxsiy-namunaviy omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, o'qituvchida adabiy-estetik kompetensiyaning shakllanganligi – o'quvchida estetik qadriyatlarni rivojlantirishning muhim garovidir.

Metodologiya. So'nggi yillarda lingvopoetik yondashuv adabiy ta'lim jarayonining samarali metodik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu yondashuv adabiy matnni til, uslub, obraz va badiiy shakl birliklari orqali tahlil qilishga asoslanadi. Natijada o'quvchi so'zning estetik qudratini his etadi, badiiy ifoda orqali estetik qadriyatni anglaydi va shaxsiy dunyoqarashini shakllantiradi. Shu ma'noda, lingvopoetik tahlil o'qituvchining adabiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislarining fikricha, zamonaviy lingvopoetika quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot olib bormoqda:

- a) lingvosentrik yo'nalish;
- b) tekstologik yo'nalish;
- v) antroposentrik yo'nalish;
- g) kognitiv yo'nalish.

Shulardan antroposentrik yo'nalish ustuvorlik kasb etib, o'z ichiga quyidagi tahlil turlarini qamrab oladi:

- psixolingvistik tahlil;
- pragmatik tahlil;
- derivatsion tahlil;
- kommunikativ tahlil;
- nutqiy (uslubiy) tahlil. [3, B.307]

Mazkur yo'nalishlarning barchasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi estetik muloqotni chuqurlashtirish, badiiy so'zning estetik imkoniyatlarini o'rganish hamda o'quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar. Aytilgan fikr-mulohazalar o'zbek tilshunosligi, xususan, lingvopoetika sohasiga ham bevosita taalluqlidir. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni har jihatdan barkamol, yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash, ularning estetik dunyoqarashini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik masalaga aylangan. Zero, har bir shaxs milliy-madaniy an'analari, qadriyatlari va me'yorlari asosida ijtimoiylashadi. Milliy urf-odatlar, me'yorlar va an'alar ruhida tarbiyalangan shaxs jamiyatning chinakam a'zosiga aylanadi.

Mazkur jarayonda, ya'ni milliy tarbiya va millat taraqqiyotida badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Bu borada buyuk ma'rifatparvar Abdulhamid Cho'lponning "Adabiyot yashasa – millat yashar" degan fikrlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Cho'lpon ta'kidlaganidek, "Adabiyoti o'lmagan va adabiyotining taraqqiysiga

harakat qilmagan millat hissiyotdan, fikrdan, ruhdan mahrum bo‘ladi”. [1, B.4] Shunday ekan, o‘qituvchilarda adabiy-estetik kompetensiyani shakllantirish milliy-ma’naviy yuksalishning eng muhim omillaridan biridir.

Adabiy-estetik kompetensiya ko‘p qirrali, kompleks tushuncha bo‘lib, u bir necha o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Kognitiv komponent** – adabiyot, san‘at, estetika va madaniyat haqidagi nazariy bilimlarni o‘zlashtirish;

2. **Emotsional-estetik komponent** – go‘zallikni his etish, estetik zavqlanish va badiiy asarlardan ruhiy oziqa olish qobiliyati;

3. **Aksiologik komponent** – estetik qadriyatlarni anglash, baholash, ularni shaxsiy e‘tiqod darajasiga olib chiqish;

4. **Faoliyatli (operatsion) komponent** – estetik bilim va his-tuyg‘ularni amaliy faoliyatda (badiiy tahlil, nutqiy ifoda, ijodiy yondashuv) namoyon etish;

5. **Kommunikativ komponent** – badiiy matn asosida muloqot, tahlil, fikr almashish va bahs-munozara olib borish ko‘nikmasi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi o‘qituvchining **kasbiy-estetik qiyofasini** belgilaydi. Shu sababli adabiy-estetik kompetensiyani rivojlantirish nafaqat o‘quv jarayonidagi badiiy tahlil bilan, balki o‘qituvchining **estetik tafakkur madaniyati va lingvopoetik tahlil ko‘nikmalari** bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Lingvopoetik yondashuv adabiy matnni tahlil qilishda so‘zning badiiy qudratini, tilning obraz yaratishdagi rolini, matnning semantik va estetik qatlamlarini ochishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘quvchida **so‘z san‘atini estetik qadriyat sifatida anglash, badiiy nutqni idrok etish va shaxsiy estetik tajriba** hosil qilish imkonini beradi.

Lingvopoetik tahlilni o‘qituvchining metodik faoliyatiga tatbiq etish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

➤ o‘quvchilar matnni yuzaki emas, **mazmun va badiiy shakl uyg‘unligi** asosida o‘rganadi;

➤ o‘qituvchi tahlil jarayonida **so‘zning estetik vazifasini** anglash va tushuntirish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;

➤ adabiy-estetik kompetensiya **bilimdan hissiyotga, hissiyotdan bahoga, bahodan e‘tiqodga** yo‘naltirilgan faol jarayon sifatida shakllanadi.

Lingvopoetik tahlil jarayonida o‘qituvchi o‘quvchini **“so‘z orqasidagi go‘zallikni ko‘ra bilishga”**, ya‘ni badiiy ifodaning ichki estetik mexanizmini anglashga o‘rgatadi. Shu tariqa lingvopoetik yondashuv nafaqat filologik, balki **pedagogik va tarbiyaviy ahamiyatga ega integrativ metod** sifatida namoyon bo‘ladi. [4, B.160-164]

Adabiy-estetik kompetensiyani samarali shakllantirish uchun pedagogik tizimda quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

1. **Mazmuniy yo‘nalish** – ta‘lim mazmuniga adabiy-estetik qadriyatlar, milliy va umuminsoniy badiiy merosni chuqur aks ettiruvchi asarlarni kiritish;

2. **Metodik yo‘nalish** – lingvopoetik, aksiologik, hermenevtik va interaktiv metodlardan foydalanish;

3. **Innovatsion yo‘nalish** – raqamli texnologiyalar, vizual va audio adabiyot tahlili vositalaridan foydalanib, estetik idrokni kengaytirish;

4. **Shaxsga yo‘naltirilgan yo‘nalish** – o‘quvchining individual estetik tajribasini rivojlantirish, badiiy asarni shaxsiy his-tuyg‘ular bilan idrok etishga rag‘batlantirish;

5. **Refleksiv yo‘nalish** – o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatida o‘z-o‘zini tahlil qilish, baholash, estetik qarashlarini takomillashtirishni yo‘lga qo‘yish.

Mazkur yo‘nalishlarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘qituvchining adabiy-estetik kompetensiyasini chuqurlashtiradi, shuningdek, o‘quvchilarda **badiiy tafakkur, estetik idrok, milliy g‘urur va ma‘naviy barkamollikni** shakllantirishga xizmat qiladi.

Muhokama va xulosa. Adabiy-estetik kompetensiya zamonaviy o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi, uning estetik tafakkurini, badiiy didini, nutq madaniyatini va shaxsiy qadriyatlar tizimini ifodalovchi muhim sifatdir. Ushbu kompetensiya o‘quvchilarda badiiy matnga estetik munosabatni shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglashga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonining asosiy omiliga aylanmoqda.

Lingvopoetik yondashuv adabiy-estetik kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib, o‘qituvchining estetik tahlil madaniyatini shakllantiradi, o‘quvchini badiiy so‘zning ichki go‘zalligini his qilishga o‘rgatadi. [2, B.189]

Shu boisdan pedagogik tizimda adabiy-estetik kompetensiyani shakllantirish jarayonini quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- adabiy-estetik kompetensiya — o‘qituvchining **kasbiy va ma‘naviy yuksalish darajasini** belgilovchi mezondir;
- lingvopoetik yondashuv esa uning **metodik asosi** bo‘lib, badiiy-estetik tafakkurni rivojlantirishning samarali yo‘lini ta‘minlaydi;
- ta‘lim jarayonida estetik qadriyatlarni ongli o‘zlashtirish, **milliy adabiy merosga estetik munosabatni** tarbiyalash – zamonaviy o‘qituvchining ustuvor maqsadi bo‘lishi zarur.

Adabiy-estetik kompetensiya o‘qituvchining estetik tafakkuri, kasbiy madaniyati va badiiy-idrok salohiyatini belgilovchi muhim integrativ sifatdir. Lingvopoetik yondashuv esa ushbu kompetensiyani shakllantirishning samarali metodik asoslaridan biri sifatida xizmat qiladi. Ta‘lim jarayonida estetik qadriyatlarni ongli o‘zlashtirish, milliy badiiy merosga estetik munosabatni mustahkamlash va o‘quvchini badiiy tafakkurli shaxs sifatida tarbiyalash zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridandir. Demak, o‘qituvchida adabiy-estetik kompetensiyani rivojlantirish – bu nafaqat pedagogik zarurat, balki yosh avlodni badiiy tafakkurli, estetik didli va ma‘naviy barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishning kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулхамид Чўлпон. Адабиёт надур? Асарлар. Тўрт жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – Б. 4.
2. Sobirova Dilafruz Abdulhay qizi. BOLALAR SHE'RIYATIDA TAKRORDAN FOYDALANISH. SUN'IY INTELLEKTNI PEDAGOGIK TA'LIMGA INTEGRATSIYA QILISH:MUAMMO VA YECHIMLAR mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 23-25 aprel, 2025-yil.
3. Грязнова А.Т. Лингвистический анализ художественного текста подходы и направление. – Москва: МПГУ, 2008. – 307 с.
4. Дилафруз Собирова. [ЎЗБЕК БОЛАЛАР ШЕЪРИЯТИ МОРФОПОЭТИКАСИ](#). FarDU. ILMIY XABARLAR. 2021/4
5. Қуронон М., Даминон И., Бозоров О., Акрамова Ш. Миллий тарбия ва ёшлар. – Тошкент: Kamalak, 2016.
6. Ҳожиева Х. Ўзбек тилида хурмат майдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол.фанлари номз. .. дисс. – Самарқанд, 2001. 130- б.

